

**XORAZMDA DAVLATCHILIKNI VUJUDGA KELISHI VA X-XIII ASRLARDADA
XORAZMSHOHLAR SULOLALARI TARIXI.***Rahimov Furqat Jabberganovich**Ichan-Qal'a davlat muzey-qo'riqxonasi**"Qadimgi Xorazm tarixi" bo'limi mudiri**Jumanazarova Go`zal**Ichan-Qal'a davlat muzey-qo'riqxonasi**"Qadimgi Xorazm tarixi" bo'limi katta ilmiy xodimi*

Annotatsiya: Maqolada muallif muzey ko`rgazmasida Xorazm diyorida davlatchilikni vujudga kelishi, O'zbekiston huddudiga mavjud bo'lgan qadimiy shaharlar, manzilgohlar va X-XIII asrlarda Xorazmda Xorazmshohlar sulolari davridagi ahamiyatga molik voqealar yoritilishi haqida ma'lumotlar beradi.

Kalit so'zlar: Xorazm, Aqchaxon, Kat, Gurganch, Qal'a, O'lka, Davlat, Hukmdor, Ma'mun, Oltuntoj, Anushtegin, Xorazmshoh.

Аннотация: В статье автор приводит сведения о зарождении государственности в Хорезмской области, древних городах и поселениях на территории Узбекистана, важных событиях периода правления хорезмшахов в Хорезме в X-XIII веках.

Ключевые слова: Хорезм, Акчахан, Кам, Гурганч, Крепость, Страна, Государство, Мамун, Олтунташ, Ануштегин, Хорезмшах.

Annotation: In the article, the author provides information about the emergence of statehood in Khorezm land, ancient cities and settlements on the territory of Uzbekistan, and important events during the reign of the Khorezm Shahs in Khorezm in the X th - XIII th centuries

Keywords: Khorezm, Akchakhan, Kat, Gurganch, Fortress, State, Mamun, Oltuntaj, Anushtegin, Khorezmshakh.

Xorazm davlati Eramizdan oldingi VIII-VII asrlarda tashkil topgan uning poytaxti xozirgi Aqchaxon qal'a, Tuproq qal'a, Kat, Gurganch shaharlari bo'lgan. Xorazmning paydo bo'lishi bilan birgalikda bu diyorda ilk davlatchilik yuzaga kelganligi shuni anglatadiki milliy davlatchiligidimiz tarixi Misr, Xitoy, Hindiston, Yunoniston, Eron kabi eng qadimiy davlatlar bilan bir qatorda turadi.

Xorazm-Markaziy Osiyoning Turon pasttekisligida Amudaryo deltasida joylashgan qadimiy tarixiy o'lkdir.

Mil. avv. I ming yillikning boshlariga kelib, Markaziy Osiyoning nisbatan rivojlangan xududlarida ilk davlat uyushmalari paydo bo'ldi. Mil. avv. IX-VIII asrlarga kelib, Baqtriya va Mil. avv. VIII-VII asrlarda Amudaryoning o'rta oqimi qismidan

Orolga yaqin bo'lgan yerlarda (Shimoliy g'arbiy O'zbekiston, Shimoliy g'arbiy Turkmaniston) xududlarida Xorazm nomi bilan ataluvchi davlat vujudga kelgan.

Baqtriya va Xorazm davlatining xududiy chegaralari o'rta Amudaryo oqimidagi yerlar orqali o'tgan. Xorazmning yirik sug'orish inshootlari mil. avv. VII-V asrlarga oiddir. Olkada bu davrlarga oid ko'pgina shahar va qishloqlar xarobalari olib o'rganilgan. Ulardagi topilmalar, manzilgoxlar, xom g'isht va paxsadan qad ko'targan bo'lib, aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Shaharlarda hunarmandchilik, savdo- sotiq rivojlangan. Qadimgi So'g'diyona Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida joylashgan bo'lib, janubi-sharqda Baktriya, shimoli-g'arbda Xorazm bilan chegaradosh bo'lgan.

Xorazm hukmdorlari o'zlarini Xorazmshoh unvoni bilan atashgan. Xorazm davlatiga afsonaviy podsho Siyovush asos solgan, u asos solgan sulola eramizning 305 yiligacha olkada xukumronlik qilgan.

O'zbekiston xududlaridagi eng qadimgi davlatlar xaqida zardushtiylarning muqaddas diniy kitobi «Avesto», Ahamoniylarning mixxat yozuvlari (Bexistun, Naqshi Rustam, Suza, Persepol) ma'lumotlar beradi.

Qadimgi yunonlar. Bu mamlakatni «Xorazmiya» («Xuruzmiya») deb ataganlar. Mixxat yozuvida «Uvarezmiya», «Zend-Avesto»da «Kayrizau» yoki “Xvarizem” deb yozilgan: arablar «Xorarezm» (Xuvorezm) deb atganlar. Xitoy manblarida esa «Xolish-mi-kich» deb berilgan. Yoqt Xamaviy o'zinig o'lmas asari “Ma'jam al-Buldon” “Mamlakatlar lug'ati” asarida Xorazm va uning shahar qishloqlari haqida o'z davriga nisbatan to'liq va qimmatli ma'lumotlar beradi: “Xorazm bu muayyan bir shaharning nomi emas, balki o'lka nomidir. Uning katta shahri al-Jurjoniya (Gurganch) deb ataladi, forslar uni past tekislikdagi mamlakat yoki pastlikdagi o'lka deb atashgan”. Xozirgi kunlarda xorazmshunos olimlar “Xorazm” atamasini “Quyosh olkasi”, “Ajoyib qo'rg'onli o'lka” yoki “ Mustaxkam qal'alar qad ko'targan mamlakat” deb talqin qiladilar.

Qadimgi Xorazm ilm-fan rivojlangan ilg'or o'lkalardan biri bo'lgan. Xususan bu diyorda aniq fanlar shakllana boshlagan edi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, olkada ilmiy tafakkur tarixi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tafakkur tarixi bilan chambarchas bog'langan. Xorazmliklarning xo'jalik hayotida erishgan muvaffaqiyatlari matematika, geodeziya, astronomiya va boshqa aniq fanlarga oid muayyan bilimlarsiz ro'yobga chiqmagan bo'lardi. Masalan, sug'orish inshootlari, kanal, chig'ir va koriz usullari bilan suvsiz yerlarga suv chiqarish, kemalar yasash, qal'alar, ko'p qavatli saroylar bunyod qilish ishlari, hisoblash va o'lchash texnikasining rivojlanishini taqoza etardi. Dehqonchilik va me'morchilikning amaliy ehtiyojlari geometriya fanining rivojlanishiga olib keldi. Matematik geografiyaning rivojlanishi esa xorazmlik savdogarlarning uzoq yurtlarga safarlari bilan bog'liq. Zero, astronomik mo'ljal

dengizda ham, qurqlikda ham zarur. Ana shunday keng ko'lAMDAGI geografik aloqalar Xorazmda kartografiya va tasviriy geografiyaning rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Qadimda Sharq bilan g'arbni bog'lovchi «Buyuk Ipak yo'li» o'tgan Xorazmshohlar mamlakatini, jumladan, 712 yili arablar istilo qilgan. Qal'a 1221 yildan mo'g'ullar imperiyasi, 1389 yildan Temuriylar davlati tarkibida bo'lgan. XVI asr boshida Xorazm mustaqilligini tiklagach, Xiva shahri uning poytaxtiga aylandi. Shundan keyin, rasmiy hujjat va zarb qilingan tangalarda Xorazm yoki Xorazmshoh nomi yozilsa ham, mamlakat Xiva xonligi nomini olgan.

Ma'muniylar sulolası (995-1017) davrida Xorazm.

X asr ohiriga kelib, Somoniylar davlatida avj olgan o'zaro urushlar uning iqtisodiy va siyosiy qudratiga katta putur yetkazdi va Samoniylarning sharqda Qoraxoniylar, janubda G'aznaviylar davlatlaridan mag'lubiyatga uchrashiga olib keldi. Natijada XI asr boshlarida Somoniylar davlati xududida ikki davlat Qoraxoniylar, G'aznaviylar davlatlari paydo bo'ldi. Somoniylar davlati tarkibidan X asrning ikkinchi yarmida shimoliy Xorazm amirlik bo'lib ajralib chiqib 995/6 yili shimoliy Xorazm hukmdori Al – Ma'mun ibn Muhammad janubiy Xorazmni fath qiladi, natijada Xorazmni yaxlit davlatga aylantirib Xorazmshoh unvonini qabul qilib, Gurganj shahrini poytaht qilib yangi qudratli davlatga asos soldi.

X asr ohirida Xorazmda shahar qurilishiga zo'r berilib me'morchilik va hunurmandchilik avj oldi, agar X asr boshlarida Xorazmda shaharlar soni 13 ta bo'lsa XI asr boshlariga kelib ularning soni 40 taga yetdi. Bu davrda qurilgan binolar odatdagidek, naqshinkor xashamdar qilib bezatildi. Xorazm rassomlarining arab istilosiga qadar bo'lgan ajoyib qadimiylar an'anaviy san'ati o'rniga nafis islamiy va girih naqshlar yaratildi.

1003 yilda Xorazmshoh Ma'mun rahnamoligida Abu Rayhon Beruniy boshchiligida Gurganjda "Dorul-ul xikmaga" asos solindi. 1017 yilda G'aznaviylar sultoni Sulton Mahmud G'aznaviy Xorazmni bosib oladi. Sulton Gurganjdagi olimlarning ayrimlarini qatl qilib, ko'pchiligini G'aznaga olib ketgan.

1. Al – Ma'mun ibn Muxammad Xorazmshoh (950-997) yillar, 995-997 yillarda Xorazmning o'ng qirg'oq va chap qirg'oqini birlashtirgan, natijada yaxlit Xorazm davlatini barpo qilgan.

2. Ali ibn Ma'mun Xorazshoh (997-999) yillar, Ma'mun ibn Muhammadni to'ng'ich o'g'li.

3. Abul Abbos Ma'mun ibn Ma'mun Xorazmshoh (999-1016), Ma'mun ibn Muhammadni ikkinchi o'g'li ma'rifatparvar hukumdar bo'lib Islom olamida ikkinchi, Markaziy Osiyoda birinchi olimlarning ilm dargohiga "Dorul-ul xikmaga" asos solingan.

4. Abul Xoris Muhammad ibn Ali Xorazmshoh (1016-1017), uning davrida G'azna sultoni Sulton Mahmud G'aznaviy Xorazmga yurish qilib, Gurganjni va boshqa shaharlarni vayron qilib mustaqil Xorazm davlatini tugatgan. Gurganjdagi olimlarni bandi qilib G'aznaga olib ketgan, shundan keyin Xorazm G'aznaviyarning shimoliy g'arbidagi chekka viloyatiga aylangan.

Gurganj shahri

Gurganj xozirda Toshxovuz qal'asidan 90 km g'arbda joylashgan bo'lib, o'z davrida Xorazmning eng katta qal'alardan biri deb hisoblangan. Qal'aning XI-XIV asrlardagi topografiyasisni o'rgangan mutaxassislar uning maydonini 1000 hektar chamasidaligini aniqlaganlar. Shundan hozirgi kunga qadar 640 hektarga yaqin maydonda madaniy qatlam bilan har xil balandlikdagi tepaliklar saqlangan. Ayrimlari bugungi kunda Oq-qal'a, Dosh-qal'a va boshqa nomlar bilan ham ma'lum. Gurganj qal'asining eng qadimgi qismi (Qirq mullo) 1988-1992 yillarda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida qurilishi davri mil. avv. V-IV asrlarga tegishli deb aniqlangan. Qal'a mudofaa devorlar bilan o'rabi olingan. Uning to'rt darvozasi bo'lib, shulardan uchtasining nomi qo'lyozma manbalarda mavjud: shimolda Xajjijash, janubda Aqbilan yoki Kabilan, sharqda Tinchlik darvozasi. Qal'a bir necha mahallalarga bo'lingan.

Gurganjning bu qismi mahalliy aholi tilida xozirda Oq-qal'a nomi bilan yuritiladi. Qal'a mudofaa devorlari bilan o'rabi olingan.

X asrning oxirlariga tegishli bo'lgan, muallifi noma'lum geografik asar «Hudud al-Olam» bo'lib, u fors tilida yozilgan. Asarda Gurganj haqida quyidagi ma'lumot beriladi: "Gurganj qal'asi ilgari xorazmshohlarga qaragan. Hozir uning boshqa podshosi bor, uni «Gurganj» amiri deb atashadi. Qal'a juda boy, u Turkiston darvozasi, savdogarlar yig'iladigan yer. Shahar ikki qismdan iborat: Ichan qal'a va tashqi qal'a. Uning aholisi o'zining mardligi bilan mashhur, yana ular o'q-yoy otishda mohir" Shahar XI-XIII asrlarning boshlarida siyosiy, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy jabhalarda aktiv faoliyat ko'rsatib Markaziy Osiyoning eng katta va kuchli qal'asiga aylangan. Shu davrda Gurganj shahri Xorazmshohlар davlatining poytaxti bo'libgina qolmay Ipak yo'li ustidagi Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan savdo markazi xisoblangan. Shu davrlarda qurilgan binolardan biri qal'adagi Jo'me masjidi va minorasi (1011 yil), Xorazmshoh El-Arslon (Fahreddin Roziy nomi bilan ham yuritiladi), Allouddin Takash maqbaralaridir. Gurganchda 150 dan ziyod hunarmandlar faoliyat ko'rsatganlar.

X asrdan boshlab Gurganj nafaqat savdo- hunarmandchilik markazi balki ilm-fan va madaniyat markazi sifatida mashxur bo'ldi. 1004-1017 yillarda Gurganchda Xorazmshoh Ma'mun II tomonidan "Majlisi ulamo" yoki "Dorul-xikma" (Donishmandlar uyi) ya'ni Ma'mun Akademiyasi faoliyat ko'rsatgan. Bu ilmiy dargoxni ustunlari Abu Rayxon Beruniy va Ibn Sinolarni ustozi Abu Nasr ibn Iroq o'z davrining o'ta bilimdon olimi edi. U tirikligidayoq «o'z davrining Ptolemy» degan laqabni olgandi. Undan tashqari Abu Nasr Beruniyni o'z xonardonida tarbiyalab

yetishtirgan. Ana shu ikki buyuk siymo tufayli Gurganch saroyida ilm ahli uchun ideal sharoit yaratiladi. Bu ikki shaxs yaqin va o'rta sharqdagi ko'plab olimlar bilan shaxsiy yozishmada edilar. Ibn Irok va Beruniyning takliflari bilan 1004 yildan boshlab Nishapur, Balx va Buxorodan va xatto arab Iroqidan ham olimlar Gurganchga kela boshladilar. Shu tariqa Gurganchda «Dorul xikma» nomini olgan ilmiy muassasa to'la shakllanadi. Bu ilmiy muassasada xuddi Bag'doddagi «Baytul xikma» dagi kabi ilmning barcha sohalarida tadqikot va izlanishlar olib borilgan. Beruniy keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, bu yerda suryon va yunon tillaridan ba'zi tarjimalar ham bajarilgan.

Anushteginiyalar davrida Gurganch shahri har tomonlama rivojlanib yirik siyosiy va savdo markaziga aylandi. 1221 yilda Chingizzon boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinlari 7-oylik qamaldan keyin Gurganch shahrini egallab vayron qildilar, shu davrda Gurganch shahrini nomi Urganch bo'lib o'zgargan (Urganch so'zi mo'g'ul tilida Gurganch so'zini buzib talaffuz qilinishi).

Mo'g'ullar istilosidan keyin ham Urganj mamlakat poytaxti bo'lib, XIII-XV asrlardagi katta savdo markazi sifatida bir muddat yashagan. Shaharga Yevropaning Ispaniya, Italiya mamlakatlaridan ham savdogarlar kelishgan. Shu davrlarda shaharda Najmiddin Kubro maqbarasi, Qutlug' Temur minorasi, To'rabekxonim maqbarasi kabi o'nlab ajoyib me'moriy inshootlar qad ko'targan.

Marokashlik arab sayohatchisi ibn-Battuta 1333 yili Urganjda bo'lib, qal'adagi katta bozor, Qutlug' Temurning saroyi, qozi uyi ichining bezatilishi, qal'a ichida va atrofida Zoviya (xonaka)larning ko'pligi va go'zalligi haqida hayrat bilan yozib qoldirgan.

XV asrning ikkinchi yarmi XVI asrda Xorazm uchun bo'lган Jo'jilar, Temuriylar orasidagi kurashlar natijasida Urganj o'zining poytaxt sifatidagi ahamiyatini yo'qotadi va Jo'ji Mustafa xon (1458) davridan boshlab Elbars (1512) va Xojimxon (1558) kabi o'zbek sultonlari hokimiyatni qo'lga olishi bilan Vazir (Devkesgan) shahri ularning ikkinchi poytaxtiga aylanadi. Shu davrlarda Urganchda Sulton Ali va Puryorvali maqbaralari qad ko'targan.

XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Amudaryo oqimining o'zgarishi natijasida daryoning chap sohilidagi yerlar tashlab ketiladi.

1646 yili Xiva xoni Abulg'ozzi Bahodirxon janubiy Xorazmda, Xivaning shimoli-sharqida Yangi Urganch qal'asini qurdirib, Urganj aholisini ko'chiradi. Shu yildan e'tiboran shaharga Ko'hna-Urganch nomi berilgan.

XIX asrda Xiva xoni Muhammad Aminxon tomonidan Ko'hna Urganch shahriga qayta jon bag'ishlab Xon yop arig'i va Tosh masjid binolari barpo qilingan.

G'aznaviylar davlati

Oltuntoshlar (1017-1036) sulolasi

Xurosondagi G'aznaviylar davlati Somoniylarlar davlatini merosho'ri sifatida tarix sahnasiga 962 yilda chiqqan. G'aznaviylar sulolasini vakillari Alptegin (962-963),

Ishoq (963-966), Bilgategin (966-972), Piritegin (972-977), Sabuktegin (977-997), Ismoil (997-998), Sulton Mahmud G'aznaviy (998-1030) va boshqalar bu davlatni siyosiy va iqtisodiy yuksalishi uchun juda ko'plab davlatlar va o'lkalarni fath qilganlar, jumladan 1017 yilda Sulton Mahmud G'aznaviy Xorazmni fath qilib Xorazmga hokim qilib Amir Oltuntoshni tayinlaydi va unga Xorazmshoh unvonini beradi. Natijada Xorazmshohlarning uzoq davom qilmagan to'rtinchı sulolasi xukmronligi 1017 yildan boshlanib va 1036 yilgacha davom qilgan. G'azna sultoni Sulton Ma'sud 1038 yildan keyin Xorazmni ximoya qilolmay qoldi va Xorazm Saljuqiylarga boj to'laydigan viloyatga aylandi. 1041 yildan keyin, ya'ni Sulton Ma'sud vafotidan keyin Saljuqiylar Xorazmdagi sulolani tugatib, Xorazmni Saljuqiylarning sharqdagi chekka viloyatiga aylantirganlar.

- 1.Xorazmshoh Oltuntosh (1017-1030-1032) yillar.
- 2.Xorazmshoh Xorun ibn Oltuntosh.(1032-1034) yillar. 1034 yilgacha G'aznaviylar vakili, undan keyin mustaqil Xorazm hukumdori.
3. Xorazmshoh Ismoil Xandan ibn Oltuntosh.(1034-1038) yillar.

Xorazm O'g'uz davlati (1038-1043 yillar)

Xorazmnning shimoliy-sharqida Orol dengizining shimoliy qismida Sirdaryoning quyilish joyida XI asrning o'rtalarida O'g'uz qabilalarining harbiy ittifoqi shakllanayotgan vaqtda Xorazm bevosita o'zining iqtisodiy va aholi resuslari bilan bu yangi tashkil topayotgan davlat tarkibini o'zagini tashkil qila bilgan. G'aznaviy va Saljuqi hukmdorlarning e'tiboridan salgina chekkada qolgan Xorazmda XI asrning o'rtalarida Yangikent shahri yag'busining o'g'li Shoh Malik boshchiligidagi (1038-1043) yillarda yangi davlat Xorazm O'g'uz davlati tashkil topgan. Shoh Malik oldin G'aznaviylarning Xorazmdagi volysi, keyinchalik Saljuqiylarning sodiq odami sifatida Xorazmni boshqargan. Keyinchalik qulay vaziyatdan ustalik bilan foydalanib mustaqil Xorazm O'g'uz davlatining hukmdoriga aylangan. Hozirgi vaqtda o'zbek tilida gapiradigan aholi o'g'uz va qipchoq laxchalarida bir-birlari bilan gaplashadilar. O'g'uz laxchasida bizning kunlarimizda (Xorazmnning yettita tumani (Xiva shahri va atrofi, Urganch, Shovot, Qo'shko'pir, Yangiariq, Bog'ot, Xazorasp), Turkmanistonning Toshovuz viloyatida (Toshovuz shahri, Ilonli, Ko'hna Urganch tumani), Qoraqolpog'istonda (To'rtko'l va Beruniy tumani), Buxoro viloyatida (Qorako'l, Olot, Romitan va Gazli tumani), Qozog'istonning Chimkent shahri va atrofida) yashovchi aholi gaplashadi.

Xorazm Saljuqiylar davlati tasarrufida

1044-1059 Torg'ulbek Saljuqi – Xorazm xukumdori 1065 y – Fagfur Joziy va al-Kashfat – saljuqiylarga qarshi qo'zgalon rahbarlari, Xorazmda xokimyatni vaqtincha qo'llarida ushlab turishgan. 1065-1077 y – Arslan shoh ibn Alp Arslon – Xorazm xukumdori.

O'ng qirg'oq	Chap qirg'oq
1089 yilgacha – Abu-Tahir – Saljuqiylar vakili	1077 yilgacha – Bilka tegin – saljuqiylar vakili
1093 yilgacha – Izzat- ul- mulk Saljuqiylar vakili.	1077-1097 yillar – Anush tegin Garchog'iy – Saljuqiylar vakili.
1092-1096 yillar Akinj – Saljuqiylar vakili	
1096-1097 y – Amir Kudan – o'zini Saljuqiylar vakili qilib ko'rsatgan – soxta xukumdor.	1096-1097 – Amir Yaraqtosh - o'zini Saljuqiylar vakili qilib ko'rsatgan – soxta xukumdor.

Buyuk Xorazmshohlar “Anushteginiylar”

1097 yilda Saljuqiylar Anush Teginning o'g'li Qutbiddin Muhammadga Xorazmshoh unvonini berishadi, shu yildan boshlab xorazmshohlarning eng buyuk, zabardast beshinchı sulolasining xukmronlik davri boshlangan. Bu sulola xukmronligi Xorazmda 1221 yilgacha, Xorazmga qaram bo'lgan o'lkalarda 1231 yilgacha, ya'ni Xorazmshoh Jaloladdin Mankburn vafotigacha bo'lgan davrda to'la taminlangan. Bu davrda Xorazm imperiya darajasiga ko'tarildi va unga 33 ta davlat bo'ysundi. Shu davrda uning chegaralari shimoliy-sharqda Dashti Qipchoq cho'llari va Tyan-shan tog'larigacha, janubda Hind ummonigacha, G'arbda Bog'dod xalifaligi, janubiy sharqda Hindiston bilan chegaradosh bo'lgan. Xorazm shu davrda ulkan hududdagi savdosotiqni o'z qo'liga olgan davlat sifatida tanilib, Markaziy Osiyo xududidan o'tuvchi Buyuk Ipak yo'lining shimoliy va janubiy tarmoqlari daxlsizligiga kafalot berardi.

Anushteginiylar sulolasi vakillar

1. Anush Tegin Garchog'iy 1077-1097 yillar.
2. Qutbiddin Muhammad Xorazmshoh 1097- 1127,1128 yillar.
3. Ollouddin Otsiz Xorazmshoh 1127,1128-1156 yilar.
4. Abul Fatx El Arslon Xorazmshoh. 1156-1172 yillar.
5. Sulton shoh Mahmud Xorazmshoh 1172-1193 yillar.
6. Aloviddin Tekash Xorazmshoh 1193-1200 yillar
7. Allouddin Muhammad Xorazmshoh 1200-1220 yillar.
8. Jalol ad-Din Mankburn Xorazmshoh 1220-1231 yillar

Foydalanilgan Adabiyotlar.

1. Mano'lov Yu.P. Gorodihe Kat (Istochniki, topografiya i xronologiya) ONUz, № 7-8, 1973.
2. /ulyamov Ya./. Istorya orosheniya Xerezma., 1957., 147 str; MITT, t. I., 1939.
3. Axmedov B. Tarixdan saboqlar., 331 b. MITT., t. 1. 1939.

4. N.I.Ibrohimov. Ibn Buttutaning O'rta Osiyoga sayohati. T.: -1992, «Xorazm» tafsiloti qismi.
5. Abulg'ozi Shajaraiy turk. T. 1992.
6. D.Bobojonov. Xorazmshohlar tarixi muzeyining ilmiy konsepsiyasi. Xiva-2019 y.

